

.....

ERKIN VOHIDOVNING ARUZDA SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

Shohida Karimova,
Alfraganus universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada Erkin Vohidov ijodida aruz vaznining qo‘llanishi va shoirning o‘zbek tili imkoniyatlaridan badiiy mahorat bilan foydalanishi tahlil etiladi. Xususan, aruz vaznida yaratilgan she’rlarda biriktiruvchi bog‘lovchilarning, ayniqsa, “va” bog‘lovchisining poetik vazifasi, misralar mazmuniy yaxlitligi va badiiy ta’sirchanligini ta’minlashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, Erkin Vohidov ijodidagi mazkur uslub Alisher Navoiy asarlaridagi an’ana bilan qiyosiy jihatdan talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Erkin Vohidov, aruz vazni, o‘zbek tili, poetik til, biriktiruvchi bog‘lovchi, “va” bog‘lovchisi, badiiy mahorat, Alisher Navoiy, poetik sintaksis, milliy she’riyat.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov 1969 yilda “Yoshlik devoni” to‘plami bilan aruz – o‘zbek she’riyatining asosiy vaznlaridan biri bo‘lib qolajagini uzil-kesil isbotladi. Keyin to umrining oxirigacha barmoq bilan bir qatorda aruz vaznida ham she’rlar yozdi. Milliy ijtimoiy-falsafiy tafakkur va milliy adabiyot rivojidagi, tarjimachilikdagi xizmatlarini e’tirof etgan holda, faqat aruzning she’riyatimizdagi o‘rnini qayta tiklagani uchun ham shoirni millat qahramonlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Aruz vaznida misralarda hijolarning ham soni, ham uzun-qisqaligining mos kelishi shart. Shuning uchun ham bu vaznda she’r yozish aruz haqidagi bilim va malakadan tashqari milliy til xususiyatlarini ham yaxshi bilishni talab qiladi. Agar aruzda yozayotgan shoir tilning leksikasi va grammatikasini yaxshi bilsa, uning oldida so‘z yoki jumlaning bir necha variantlari turadi, shoir ulardan o‘zi ishlatayotgan vaznga mosini tanlab qo‘llay oladi.

Erkin Vohidov iste’dodli, atoqli shoir bo‘lish bilan birga o‘zbek tilining davlat

tiliga aylanishi uchun amalda kurashgan oydinlarimizdan biri, milliy til nozikliklarini yaxshi bilgan va she'riy matnda voqelantira olgan so'z bilimdonidir. "So'z latofati" [2] kitobining o'ziyoq uning milliy til sirlarini qancha chuqur bilishi, o'z tiliga muhabbatini shoyon ko'rsatib turibdi.

Biz mazkur maqolada aruzdek murakkab va injiq vaznda mukammal she'rlar yaratish uchun o'zbek tili imkoniyatlaridan qanday foydalana olganligini biriktiruvchi bog'lovchilar misolida tadqiq etishga harakat qildik.

Biriktiruvchi bog'lovchilar, ayniqsa uning "va" shaklidan foydalanishning mumutoz namunasini Alisher Navoiy asarlarida, ayniqsa, nasrida ko'p uchratish mumkin. Masalan, "Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi qism 10-faslida oshiq shunday tavsiflanadi: *"Va oshiq mundoq baloning giriftori va mundoq ofatning beixtiyori, mundoq to'fonning g'ariqi va bu nav' soiqaning hariqi, mundoq g'addorning zabuni va mundoq parizodning maftuni va mundoq devkirdorning majnuni"* [5, 65]. Bitta gapda 5 marta "va" qo'llangan va uning oshiq sifatlarini zanjir halqalariday ulab kelishi matnga kuchli pafos bag'ishlagan. "Mahbub ul-qulub"da "va"ni bu taxlit tizish usuli juda quyuq qo'llangan. Bunday usul Navoiy devonlari debochalarida ham ko'p uchraydi. "Badiyi' ul-bidoya" debochasidan bir misol: *"Bu vojibul-ittibo' amr vuqu'idin va bu yasihus-sukut hukm suduridin dud boshimg'a oshti va o't dumog'imga tutoshti, xomam tili lol va tilim xomasi shikastamaqol bo'ldi"* [3, 18].

Erkin Vohidov ham hazrat Alisher Navoiy ijodining bilimdoni va maftuni bo'lgan. Uning bir necha g'azallarini sharhlagan, muxammas bog'lagan, shoir ijodini juda chuqur bilgan.

E.Vohidovning aruziy she'rlarida biriktiruvchi bog'lovchilarni qo'llashida ham navoiyona mahoratga intilish namoyon bo'ladi. Uning til bilimdoni va vazn ustasi sifatidagi mahorati bog'lovchi so'zning vazn talab qilgan variantini tanlashda yaqqol ko'rinadi.

Ma'lumki, o'zbek tilida biriktiruvchi bog'lovchining "va, hamda, (ham shaklida ham keladi), bilan, birla, birlan, ila, bila (qisqartirilgan variantda -la shaklida ham keladi)" kabi turlari hamda ular o'rnida qo'llanadigan -u (-yu) yuklamasi bor. Bu xilma-xillik aruzda yozadigan shoirga keng imkoniyat beradi. E.Vohidov ham vaznga qarab uning turli shakllaridan foydalangan:

Tillashibdir bo‘ri birla tozilar,

- V - - | - V - - | - V -

Birlashibdir o‘g‘ri birla qozilar. [2, 58]

- V - - | - V - - | - V -

Foilotun foilotun foilun

“Bu zamon g‘azali” nomli she‘r 1991 yilda yozilgan Shoir unda davrning ijtimoiy fojialarini fosh qiladi. Aslida tozi itlar bo‘rini tutishi kera, qozilar esa o‘g‘rilarni sud qilib, jazo berishi lozim. Lekin shunday zamon kelganki, tozi bilan bo‘ri, qozi bilan o‘g‘ri til biriktirib, hamtovoqqa aylangan. Demak, jamiyatda talonchi, ochko‘z, o‘g‘ri, vijdotsizlarni jazolashi shart bo‘lgan kuchlarning o‘zi o‘shalarning hamkoriga aylangan. Mana shu fojia shoirni chuqur qayg‘uga soladi.

G‘azal ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Biriktiruvchi bog‘lovchining yuqorida ko‘rsatilgan 11 variantidan shoir “birla” shaklini tanlaydi. Chunki bayt ramal vazniga tushishi uchun bir cho‘ziq, bir qisqa hijodan iborat co‘z (“- V”) lozim bo‘lgan. 11 variant ichida bundan tashqari “hamda” so‘zi ham “- V”ga tushadi. Bizningcha, E.Vohidov ikki sababga ko‘ra “birla”ni tanlagan:

1) Bu so‘z biriktiruvchi bog‘lovchining eski shakli bo‘lib, mumtoz adabiyotda qo‘llangan, shoir shu orqali ham aruz ruhini kuchaytirishga erishgan.

2) Ikkinchi misra “birlashibdir” so‘zi bilan boshlangan va bunda radd ul-ajz minas-sadr lafziy san‘atining radd ul-hashv il al-ibtido [bu haqda q.: 6, 85-89; 7, 52-58] deb nomlash mumkin bo‘lgan tarmog‘i yuzaga kelgan. Ya‘ni 1-misra o‘rtasi(hashv)dagi so‘z 2-misra boshi(ibtido)da takrorlangan. “Birla” va “birlashibdir” so‘zlarining takrori bilan bog‘liq badiiy san‘at baytning ta‘sir kuchini oshirgan.

Quyidagi baytda esa biriktiruvchi bog‘lovchi qo‘llashning yana bir mohirona namunasiga duch kelamiz:

Istasang toza ko‘ngilga qo‘nmasin zarra g‘ubor,

Pok so‘zu pok ish va pok dil, pok xayol bo‘lmoq kerak. [2, 76.]

- V - - | - V - - | - V - - | - V -

Foilotun foilotun foilotun foilun

Bayt darhol Alisher Navoiyning Farhod ta‘rifidagi “*Demon, ham ko‘ngli poku*

ham ko‘zi pok, / Tili poku so‘zi poku o‘zi pok” ” [4, 76]. baytini esga soladi. E.Vohidov ham mazkur “Qit’a”da ko‘ngil pokligi haqida so‘z yuritmoqda. Tabiiyki, bunda Alisher Navoiydan ta’sirlangan va bu ta’sir “pok” so‘zining zanjirsimon kelishida ham, biriktiruvchi bog‘lovchi vazifasida “-u” yuklamasining qo‘llanishida ham ochiq ko‘rinib turibdi. Alisher Navoiy o‘zi komil inson sifatida taqdim etgan qahramonini tavsiflagan bo‘lsa, Erkin Vohidov toza ko‘ngilni g‘uborlardan asrash haqida so‘z yuritmoqda. Unga ko‘ra, ko‘ngilni asrash uchun so‘z ham, ish ham, dil ham va hatto xayol ham pok bo‘lishi lozim. Uch baytli bu qit’a ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Aynan vazn shoirga “-u” bog‘lovchisini Navoiyga o‘xshab ketma-ket qo‘llash imkonini bermagan: “pok ish va” degan jumla vaznning “cho‘ziq+cho‘ziq+qisqa+cho‘ziq” hijoli qismiga to‘g‘ri kelgan. Agar shoir “ish va”ning o‘rnida “i-shu” deydigan bo‘lsa, “i” cho‘ziq talaffuz qilinishi kerak bo‘lar, bunda esa notabiiylik yuzaga kelar edi. Shuning uchun shoir vazn talabi bilan “ish va”(cho‘ziq+qisqa)ni tanlaydi.

Qit’aning ikkinchi baytida ham ikki marta “-u”ni qo‘llagan:

Jismu jonimga desang, begona bo‘lsin xastalik,

Ishq zavqu dardi birlan xastahol bo‘lmoq kerak.

Bu yerda ham vazn biriktiruvchi bog‘lovchining boshqa shaklini ishlatishga yo‘l qo‘ymaydi, albatta. Bundan tashqari “jismu jon” hamda “zavqu dard”da badiiy bo‘yoqdorlik kuchli, bu jumlar badiiy matnda qariyb trafaret-shablona aylangan. Oxirgi baytda esa shoir nihoyatda zariflik bilan “va” yordamida tajnis san’atini hosil qiladi:

Qalbgga istarsan shifo gar, bo‘l yomon so‘zdan yiroq,

Korvalol ichmoq kerakmas, kar va lol bo‘lmoq kerak.

Shoir ruscha-baynalmilal atama bo‘lgan “korvalol” (rus tilidagi urg‘u qoidasiga ko‘ra “karvalol” talaffuz qilinadi) ishlatilgan satrda “kar va lol”ni keltirish orqali tajnisning nihoyatda original namunasini yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov aruz vaznini qo‘llashda o‘zbek tilining kutilmagan imkoniyatlarini namoyish qila olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vohidov E. Saylanma. 3-jild. Umrim daryosi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 271 bet.
2. Vohidov E. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 152 bet.
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987. – 692 bet.
4. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991. – 598 bet.
5. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – 320 bet.
6. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. – 160 bet.
7. Husayniy A. Badoyi’ us-sanoyi’. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1981. – 400 bet.
8. Жумаева, С. Ч. “ТАҒАЗЗУЛ” ДОСТОНИДА ШАРҚОНА ТАҒАККУР ВА ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР ТАЛҚИНИ.
9. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA’T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
10. TURSUNALIYEVA, M. (2025). OGHIYNING “ZUBDAT UT-TAVORIX” ASARIDA HAMD MATNIDAGI SO’ZLAR JILVASI. «АКТА NUUZ», 1(1.7), 310-312.
11. QIZI, T. M. A. The Compatibility of Ogahis Literary Translation and the Originality of Jamis Artistic Creation. *JournalNX*, 6(12), 223-226.
12. Rakhimovna, U. N. The Image of the Human Psyche in Abdulla Oripov's Poems.
13. Dusmuratovna, J. S. (2022). CREATIVE FEATURES OF NON-TRADITIONAL ENGLISH LESSONS IN THE SPHERE OF HIGHER EDUCATION. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 1), 232-237.
14. Dusmuratovna, J. S. SELF-STUDY AS A SOURCE OF BOOSTING NEW KNOWLEDGE. EDITORIAL BOARD, 605.
15. Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.
16. Gupta, D., Iroda, K., Faridovna, I. M., Hamidova, M., Muminjon, K., Saidjonovich, M. S., & Babayeva, Z. (2026). School-Based Support and Educational Transitions: Communication and Cognition in Genetic Syndromes. In *Interdisciplinary Perspectives on Genetic Syndromes and Human Development* (pp. 27-62). IGI Global Scientific Publishing.